

FONETIK USLUBIYATNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI

Andijon davlat pedagogika instituti

Filologiya fanlari doktori

U. F.Faxriddinovich

Filologiya fakulteti talabalari

Olimova Marhaboxon va Xasanboyeva Mohinur

Annotatsiya: Mazkur maqolada fonetik uslubiyat fanining predmeti, tadqiqot yo'nalishlari hamda badiiy nutqdagi fonetik vositalarning uslubiy funksiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, turli uslublarda tovush vositalarining qo'llanish xususiyatlari misollar asosida ko'rsatilib, fonetik uslubiyatining amaliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: fonetik uslubiyat, tovush

Аннотация: В статье рассматриваются предмет фонетическое стилистики, направления её исследований и стилистические функции фонетических средств в художественной речи. Особое внимание уделяется различиям в использовании звуковых средств в разных функциональных стилях.

Annotation: This article examines the subject matter of phonetic stylistic, its research directions and the stylistic function of phonetic devices in literary speech. It highlights the use of sound patterns across different functional styles and explores the practical value of phonetic stylistics.

Kalit so'zlar: fonetik uslubiyat, tovush vositalari, badiiy nutq, uslubiy funksiyalar, fonostilistika, alliteratsiya, fonema, urg'u, intonatsiya

Ключевы слова: фонетическая стилистика, звуковые средства, стилистические функции, фоностилистика.

Keywords: culture; stereotype; value; information function, semiotic function; communicative function; regulatory function; principle of objectivity; principle of compatibility with cultural categories

Tilshunoslikda fonetika va uslubiyat alohida fan sohalari sifatida shakllangan bo'lsa-da, ularning kesishgan nuqtasi — fonetik uslubiyat — matnning estetik va hissiy jihatlarini tahlil qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Fonetik uslubiyat adabiy nutqda tovushlar tizimining ifodaviy imkoniyatlarini chuqur o'rganadi. Tilning tovush tizimi faqat grammatik birliklarni hosil qiluvchi vosita sifatida emas, balki estetik, hissiy va ekspressiv imkoniyatlarga ega bo'lgan kuchli quroldir. Adabiy matnlarni chuqur tahlil qilishda fonetik vositalarning roli beqiyosdir. Fonetik uslubiyat aynan mana shu imkoniyatlarni aniqlash, tahlil qilish va ularni uslubiy jihatdan

baholash bilan shug'ullanadi. Ushbu maqolada fonetik uslubiyatning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Fonetika (yunoncha: *phonetikos* — tovushga, tovush chiqarishga oid; tovushli, ovoqli) — 1) tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo'g'in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o'rganuvchi bo'limi. Shu bilan birga, ayrim tilshunoslar fonetika doirasiga tovush birliklarining yozuvdagi ifodalari (grafika) va ma'noli birliklarning yozilish qoidalari (imlo)ni ham qo'shib, uning o'rganish obyekti yanada kengaytiradilar (rus olimi L. V. Shcherba). O'zbek tilshunosligida fonetika doirasida, asosan, nutq tovushlari [ularning artikulyatsion, akustik, perseptiv (psixofonetik) va funksional tomonlari] va ohang (bo'g'in, sintagma, urg'u va boshqalar) o'rganiladi.

Fonetik uslubiyatning nazariy asoslari. Fonetik uslubiyat — fonetika (tilning tovush tizimini o'rganuvchi fan) va uslubiyat (til vositalarining estetik funksiyasini tahlil qiluvchi yo'nalish) sohalarining tutashgan sohasidir. Uning nazariy asoslari quyidagilardan iborat:

A) Fonemalarning uslubiy funksiyasi. Har bir tovush ma'lum matn kontekstida muayyan hissiy bo'yoq yuklashi mumkin. Masalan, shovqinli undoshlar yordamida harakat dinamikasi ifodalanadi.

B) ¹Intonatsiya va ²ohang. Intonatsiya (lotincha *Intono* — baland talaffuz qilaman) (tilshunoslikda) — nutqning ohangi, uning maromiymusiqiy tomoni; tovushning navbatmanavbat ko'tarilishi va tushi-shi. I. nutqning sintaktik ma'nolari (darak, so'roq, buyruq)ni ham ifodalaydi. Nutq qaratilgan ob'ektga bo'lgan so'zlovchining munosabati, hissiyoti so'zdagi I.da namoyon bo'ladi. Yozuvda intonatsiya qisman tinish belgilari orqali ifodalanadi. Nutqning stilistik xususiyatlarini farqlashda, uni shakllantirishda ham ma'lum rol o'ynaydi. Intonatsiyani nutq unsuri sifatida o'rganish 19-asr oxirlaridan boshlangan. Hozirda intonatsiyalarning turlarini o'zaro farqlashdagi ahamiyati, sintaksis bilan o'zaro munosabati va uning tarkibiy qismlari tadqiq etilgan, matn intonatsiyasi va fonostilistika borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, so'roq, buyruq, undov gaplar intonatsiyasining farqlari matnga turli uslubiy rang kiritadi. Ohang (fors. — tovush, nag'ma, kuy) — musiqiy ifoda vositasi sifatida eng kichik kuy bo'lagi, intonatsiya. Ohang bir necha tovushlarning mantiqan ulanib bori-shidan hosil bo'lib, vokal musiqada she'riy ruknga mos keladi. Ohanglar birikib yirikroq tuzilmalar — kuy jumllarini tashkil etadi. Ohang kuyning bosh (eng o'ziga xos) tuzilmasi va boshqa ma'nolarda ham, hindlarda esa "ohangit" musiqaning umumiy ifodasi sifatida, forsiyzabon xalqlarda "ohangsoz" — bastakor ma'nosida ham qo'llanadi.

¹ Qomus

² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi

D)³ Urg‘u — turli fonetik vositalar (masalan, nafas chiqarishning kuchi, ovozni kuchaytirish, bo‘g‘in tarkibidagi unlining cho‘ziq talaffuzi, ton balandligini o‘zgartirish) orqali bo‘g‘in yoki so‘zni ajratish, shu ajratishga xos kuchli talaffuz. Ajratish ob‘yektiga ko‘ra, Urg‘uning 2 turi farqlanadi: so‘z urg‘usi (lug‘aviy urg‘u) va fraza urg‘usi (mantiqiy urg‘u). Ikki va undan ortiq bo‘g‘inli suzlarda shu bug‘inlardan birini ajratib, kuchli talaffuz etilishi so‘z urg‘usi deyiladi. So‘z urg‘usi, o‘z navbatida, so‘zning qaysi bo‘g‘inga tushishi, qaysi bo‘g‘inga birkutilganligiga ko‘ra 2 turga ga bo‘linadi: bog‘liq Urg‘u va ko‘chma (erkin) urg‘u Bog‘liq urg‘u so‘zda bo‘g‘inlar soni o‘zgarishi (ortishi)ga qaramay, o‘rni o‘zgarmaydigan Urg‘udir (mas, rus tilida). Ko‘chma urg‘u affiksatsiya jarayonida so‘zda bo‘g‘inlar soni orta borishi bilan o‘rnini o‘zgartira boradigan, ya’ni oxirgi bo‘g‘inga siljib boradigan U.dir. Masalan, o‘zbek tilida so‘z urg‘usi shunday: o‘qit — o‘qito‘v — o‘qituvchi — o‘qituvchilik. Ayrim holatlarda so‘z urg‘usi ma’no farqlash vazifasini ham bajaradi: olma (fe‘l) — olma (ot: meva); osma (fe‘l:biror narsani osib qoyishning, bo‘lishsizlik shakli) — osma(ot:tibbiyot anjomi) yoki so‘z shaklini farqlaydi: ishchimiz (bizning ishchi) — ishchimiz (biz — ishchi), otingiz (sizning otingiz) — otingiz (miltiqni oting) kabi.

E) Tovush uyg‘unligi:alliteratsiya va assonans:

Alliteratsiya (Tavze) — she’rda, jumlada, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi. Tovushlar ohangdorligi, asosan bir xil tovushlarning takrorlanishidan hosil bo‘lgan ohangdorlik alliteratsiya deb yuritiladi. Aliteratsiya va assonans kabi fonetik vositalar, tovushlarni qayta-qayta takrorlash orqali aniq bir kayfiyatni aks ettiradi, bu esa asarlarning emotsional kuchini oshiradi. Misol uchun, Shekspirning “Hamlet” tragediyasida aliteratsiya va assonans orqali qayg‘u, qorong‘ulik va fojining estetik tasviri yaratiladi. Tovushlarning bu turdagi ishlatilishi o‘quvchining ichki holatini kuchaytiradi, tasavvurlarni jonlantiradi va ularni chuqurroq his qilishga undaydi.

Badiiy nutqdagi tovushlar faqatgina ma’no va tasvirlarni yaratish bilan cheklanmaydi. Ular o‘quvchining ruhiy va hissiy holatini o‘zgartiradi. Nutqdagi tovushlar yordamida yaratilgan atmosferalar, his-tuyg‘ularni jonlantirish va o‘quvchini tasavvurlarga chorlaydi. Tovushlarning ritmi, ularning uzunligi va shakli, o‘quvchining ichki holatiga ta’sir etadi. Shuning uchun tovushlar, faqat tilni ta’riflashda emas, balki uning psixologik va estetik xususiyatlarini anglashda ham muhim ahamiyatga ega. Tovushlar yordamida yaratilgan aloqalar, o‘quvchining xotirasiga chuqur o‘rnatiladi, bu esa uning emotsional reaksiyalarini oshiradi. Bunday vaziyatda, tovushlar yordamida yaratilgan psixologik ta’sir, nutqning jozibasini yanada kuchaytiradi. Bu, ayniqsa, she’riy asarlarda, masalan, Byronning “Don Juan” asarida o‘zining yuqori darajada ifodalanishini topadi.

³ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi

Tovushlar, nafaqat soʻzlarning maʼnosini yetkazishda, balki ularning psixologik taʼsirini yaratishda ham muhim rol oʻynaydi. Tovushlarning inson psixikasiga taʼsirini oʻrganish fonetik uslubiyatda muhim yoʻnalish hisoblanadi. Badiiy asarlarda tovushlarning psixologik taʼsiri koʻpincha oʻquvchi yoki tinglovchining ichki dunyosiga kirib, uning hissiyotlari va kayfiyatini shakllantiradi. Tovushlarning oʻziga xos takrorlanishi, ohanglar va ritmlar orqali yaratilgan psixologik taʼsir, asarlarning emotsional kuchini oshiradi. Fonetik uslubiyatda tovushlarning stilistik funksiyasi, nutqning estetik va emotsional jihatlarini yoritishda muhim hisoblanadi. Tovushlarning oʻziga xos tarkibi va uslubi, adabiyotda oʻzgacha ohang yaratadi, bu esa oʻquvchining hissiy reaksiyasini kuchaytiradi. Stilistik jihatdan tovushlar yordamida turli xil atmosferalar, kayfiyatlar va hissiyotlar aks ettiriladi. Masalan, qoʻllaniladigan alliteratsiya, assonans, onomatopoeiya kabi fonetik vositalar, oʻquvchiga asarning umumiy kayfiyatini tushunishga yordam beradi va uning tasavvurini jonlantiradi. Badiiy Asarlarda Tovushlarning Rolini Yoritish Badiiy asarlarda tovushlar yordamida yaratilgan tilning estetik xususiyatlari nafaqat maʼno, balki oʻquvchi yoki tinglovchining tasavvurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Aliteratsiya va assonans kabi fonetik vositalar, nafaqat soʻzlarning ritmik tuzilishini, balki ularning musiqiy jozibasini ham yaratadi. Bu badiiy vositalar orqali nutqning hissiy va psixologik taʼsiri kuchayadi, va bu elementlar badiiy asarlarning aniq bir uslubda ifodalanishini taʼminlaydi.

Badiiy nutqdagi tovushlar faqatgina maʼno va tasvirlarni yaratish bilan cheklanmaydi. Ular oʻquvchining ruhiy va hissiy holatini oʻzgartiradi. Nutqdagi tovushlar yordamida yaratilgan atmosferalar, his-tuygʻularni jonlantirish va oʻquvchini tasavvurlarga chorlaydi. Tovushlarning ritmi, ularning uzunligi va shakli, oʻquvchining ichki holatiga taʼsir etadi. Shuning uchun tovushlar, faqat tilni taʼriflashda emas, balki uning psixologik va estetik xususiyatlarini anglashda ham muhim ahamiyatga ega. Tovushlar yordamida yaratilgan aloqalar, oʻquvchining xotirasiga chuqur oʻrnatiladi, bu esa uning emotsional reaksiyalarini oshiradi. Bunday vaziyatda, tovushlar yordamida yaratilgan psixologik taʼsir, nutqning jozibasini yanada kuchaytiradi. Bu, ayniqsa, sheʼriy asarlarda, masalan, Byronning “Don Juan” asarida oʻzining yuqori darajada ifodalanishini topadi.

Fonetik uslubiyat — badiiy tilning goʻzalligi, taʼsirchanligi va ifodaviyligini ochib beruvchi muhim soha. U tilshunoslik nazariyasi uchun ham, amaliy kommunikatsiya jarayonlari uchun ham beqiyos ahamiyatga ega. Matnning musiqiyligi, kayfiyati, hissiy boʻyoqlari aynan fonetik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Fonetik uslubiyat tilning badiiy va estetik goʻzalligini chuqur anglashga xizmat qiluvchi dolzarb sohalardan biridir. Fonetika va uslubiyatning kesishgan nuqtasi sifatida bu yoʻnalish nafaqat tilning tashqi tovush jihatlarini, balki uning ichki maʼno,

ruhiy va hissiy qatlamlarini ham yoritadi. Alliteratsiya, assonans, urg‘u, intonatsiya kabi fonetik vositalar yordamida matnga emotsional ta’sir kuchi, estetik ifoda, ritm va kayfiyat singdiriladi. Ayniqsa, adabiy matnlarda bu vositalar orqali yaratilgan obraz va tasvirlar o‘quvchida chuqur hissiyot uyg‘otadi, esda qolarli taassurot qoldiradi. Fonetik uslubiyat shunchaki tovushlar tizimini emas, balki til orqali tuyg‘ular, fikrlar va obrazlarni estetik shaklda yetkazishning kuchli vositasini o‘rganadi. Shu bois, fonetik uslubiyat nafaqat nazariy tilshunoslikda, balki amaliy nutq madaniyati, badiiy ijod va hatto psixologik tahlil sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov F. F. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2022.
2. Karimov N. Badiiy uslubiyat asoslari. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
3. L. V. Shcherba. Фонетика французского языка. – М.: Просвещение, 1963.
4. Bozorov M. Fonetik vositalarning estetik xususiyatlari. // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – 2021, №3.
5. G. Yuldasheva. Uslubiyat asoslari. – T.: TDPU, 2018.
6. Abrams, M. H., & Harpham, G. G. A Glossary of Literary Terms. – Cengage Learning, 2015.
7. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge University Press, 2003.
8. Shakespeare, W. Hamlet – Annotated Edition. (Alliteratsiya va assonans tahlili uchun manba)
9. Byron, G. G. Don Juan. (Psixologik ta’sirdagi fonetik vositalar uchun manba)